

Fanlar akademiyasiga Turkiya elchisi tashrif buyurdi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Turkiya Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Olgan Bekar janoblari tashrif buyurdi. Mehmonni FA prezidenti B.Yuldashev, bosh ilmiy kotib G'.Baxadirov, vitse-prezidentlar B.Ibragimov hamda S.Mirzayevlar kutib oldi.



Uchrashuv davomida FA faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlari haqida qisqacha ma'lumot berildi. Shu o'rinda elchi O.Bekar janoblari O'zbekiston bilan ilmiy aloqalarni yanada mustahkamlashdan manmun ekanligini izhor etdi hamda samimiy uchrashuv uchun minnatdorchilik bildirdi.